




ISSN 3030-3370

№ 3,4 (3) 2023

AYNIY VORISLARI

XALQARO ELEKTRON JURNAL
INTERNATIONAL ELECTRONIC JOURNAL





ISSN 3030-3370

“AYNIY VORISLARI”
xalqaro elektron jurnal

«НАСЛЕДНИКИ АЙНИ»
международный электронный
журнал

“AYNIY’S SUCCESSORS”
international electronic journal

№ 3,4 (3) 2023

TAHRIR HAY'ATI:

BOSH MUHARRIR

OBIDJON XAMIDOV,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

DILRABO QUVVATOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

MAS'UL KOTIB

NAFOSAT O'ROQOVA,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) (O'zbekiston)

DARMONOY O'RAYEVA,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

JUMAQUL HAMROH,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

NURBOY JABBOROV,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

NURALI NUROV,
filologiya fanlari doktori, professor (Tojikiston)

SHAVKAT HASANOV,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

SHAMSIDDIN SOLIHOV,
filologiya fanlari doktori, professor (Tojikiston)

NURETTIN DEMIR,
Pr. Dok. (Turkia)

NAFAS SHODMONOV,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

ALFIYA YUSUPOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (Rossiya)

SHOHIDA SHAHOBIDDINOVA,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

G'AYRAT MURODOV,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

SHOIRA AXMEDOVA,
filologiya fanlari doktori, professor (O'zbekiston)

MEHRINISO ABUZALOVA,
filologiya fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston)

DILSHOD RAJABOV,

FOLKLORSHUNOSLIK VA ADABIYOTSHUNOSLIK MASALALARI

*Amonova Zilola Qodirovna,
Buxoro davlat universiteti dotsenti,
filologiya fanlari doktori
zilolajonamonova@gmail.com*

*Olimova Munavvar Sultonovna,
BuxDUMatnshunoslik va adabiy manbashunoslik yo‘nalishi magistri,
BDTI akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi*

HUVAYDO DEVONINING “BUXORO” TOSHBOスマSI

Annotatsiya: Xojanazar Huvaydo Qo‘qon adabiy muhitining zabardast namoyandasi bo‘lib, sohibdevon shoir sanaladi. Uning lirik merosi devon holida nashr qilingan. Maqolada shoirning Buxoro adabiyot va san’at muzeyida saqlanayotgan “Huvaydoi Chimyoniy” nomli toshbosmasi xususida so‘z boradi. Shuningdek, Huvaydo devoniga kiritilmagan bir munojot g‘azali hamda Navoiy g‘azaliga tasdis musaddasi ilmiy jamoatchilik uchun bir yangilik sifatida e’tirof etilgan.

Kalit so‘zlar: Huvaydo devoni, qo‘lyozma, toshbosma, munojot g‘azal, tasdis musaddas, Qur’oni Karim, Hadisi sharif, tasavvuf.

Аннотация: Ходжаназар Хувайдо является выдающимся представителем литературной среды Кохана и считается выдающимся поэтом. Его лирическое наследие было опубликовано в виде девана. В статье рассказывается о литографии поэта «Хувайдои Чимёни», хранящейся в Бухарском музее литературы и искусства. Также новинкой для научного сообщества были признаны одна муноджотская газель, не вошедшая в диван Хувайдо, и конфирмационный мусад газели Навои.

Ключевые слова: диван Хувайда, рукопись, каменная печать, муноджот газель, тасдис мусаддас, Священный Коран, хадис Шариф, мистика.

Abstract: Khojanazar Huvaido is an outstanding representative of the Kokan literary environment and is considered a master poet. His lyrical legacy was published as a devan. The article talks about the poet's lithograph named «Huvaidoyi Chimyoniy» kept in the Bukhara Museum of Literature and Art. Also, one munojot ghazal, which was not included in Huvaydo's divan, and the musadad of Navoi's ghazal were recognized as a novelty for the scientific community.

Keywords: Huwayda divan, manuscript, stone print, munojot ghazal, tasdis musaddas, Holy Qur'an, Hadith sharif, Sufism

Kirish. Ma'lumki, mumtoz adabiyot saralangan, ya'ni vaqt va davr sinovlaridan o'tib, millatning ma'naviy-axloqiy ehtiyojlariga javob bera oladigan badiiy ijod namunalarini majmuyi hisoblanadi. O'z ma'naviy merosi bilan xalqimiz kamolotiga beminnat hissa qo'shgan mutasavviflardan biri Xojanazar G'oyibnazar o'g'li Huvaydodir. Tasavvuf she'riyatining yirik vakili hisoblangan Huvaydo Farg'ona viloyati Chimyon qishlog'ida yashab ijod etgan bo'lsa-da, uning adabiy merosi Markaziy Osiyoda keng tarqalgan. 1907-yili Toshkentda shoirning "Kitobi eshon Huvaydoi Chimyoniy" nomi bilan toshbosma devoni bositgan. Mazkur devoni qayta-qayta ko'chirilgan bo'lib, birgina O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida **yettita** qo'lyozmasi va "Rohati dil" asarining 12 ta toshbosma nusxasi saqlanmoqda.

Huvaydo o'z she'rlarida, asosan, Qur'on oyatlari, Hadislar va tasavvufiy g'oyalarni singdirgan. Bu esa o'sha davr ilm ahli uchun qo'llanma vazifasini o'tagan, deyish mumkin. Chunki diniy maktab va madrasalarda Qur'oni Karim, Hadisi Sharif bilan birgalikda diniy-tasavvufiy mavzudagi g'azallar ham o'qitilgan. Shuning uchun uning qo'lyozma va toshbosmalari keng nusxada turli hududlarda tarqalgan. Bunga asos sifatida Buxoro xalq amaliy san'at muzeyi qo'lyozmalar fondida saqlanayotgan Huvaydo kitoblarini keltirishimiz mumkin.

1. Huvaydo g'azallari, duolar va hadislar majmuasi. 28053/11 raqamli qo'lyozma;
2. Huvaydo g'azallari. 10796/11 raqamli qo'lyozma;
3. Huvaydo g'azallari. 12307/11 raqamli qo'lyozma (1901- yilda ko'chirilgan);
4. Rohati dil.Huvaydo g'azallari. Muhimoti muslimin. Jamlanma (1869-yil ko'chirilgan);
5. Huvaydo, Mashrab, Amir Axtam sahaba g'azallari, islom tarixiga oid she'rlar. 11779/11 raqamli qo'lyozma;
6. Bayoz. Muqimiy, Haziniy, Muxlis, Huvaydo g'azallari. 12443/11 raqamli toshbosma;
7. Huvaydoi Chimyoniy g'azallari. 163 inventar raqamli toshbosma.

Yuqorida nomlari keltirilgan qo'lyozma va toshbosmalardan ham ma'lum bo'ladiki, Xojanazar Huvaydo g'azallari Qur'on va hadislar, islom tarixiga oid she'rlar bilan yonma-yon holda o'qitilgan. Bayozlarda ham shoir g'azallari mutasavvif so'fiylar ijodi va ayrim duolar bilan birgalikda jamlangan.


Shulardan biri bo'lgan "Huvaydoi Chimyoniy" nomli toshbosma Buxoroda saqlanayotgani uchun shartli ravishda "Buxoro" toshbosmasi deb keltirildi. Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro viloyati Axborot-kutubxona markazi Sharq qo'lyozmalar fondida 163 inventar raqami bilan saqlanayotgan mazkur manba 1900-yilda Toshkent Ilin tipo-litografiyasida bositgan. 120 sahifadan iborat bo'lgan ushbu kitobning birinchi sahifasida "Ravnaq" matbaasi nomi qayd etilgan. Mazkur toshbosmada g'azallar arab alifbosi asosida kiritilgan bo'lib, an'anaviy

devonlar kabi Basmala bilan boshlangan. Devondagi ilk she'r hamd xarakteridagi g'azal hisoblanadi. Ammo toshbosmada an'anaviy devonchilikda kuzatiladigan holatlarga qat'iy rioya qilinmagan o'rinalar ham mavjud. Ya'ni hamd g'azaldan so'ng keltirilishi lozim bo'lgan munojot-g'azal toshbosmaning 13-sahifasida berilgan.

2005-yil Toshkentdagи “Yangi asr avlodi” nashriyotidan chiqarilgan Xojanazar Huvaydo “Devon”i hamda 2017-yilda qayta chop etilgan shu kitobning ikkinchi to'ldirilgan nashri bilan “Huvaydoi Chimyoniy” toshbosmasidagi she'rlar o'zaro taqqoslanganda bir munojot-g'azal va bir tasdis musaddas nashrlarda yo'qligi aniqlandi. Shunga ko'ra yangi g'azalning toshbosma holatidagi fotonusxasini to'liq keltirishni joiz deb bildik:

خداوند اتمس تو روکلار دن غنزال ياز
 پناه بيرىكى هىچارە ذوسوس ئاطان
 منى عاجز قلونى فتنە حىز مارنىيەن
 مرکىلار دىنلەح صۇرۇقىسى ييانەت
 آڭھىزە دەذوق مەھر ايلار وزى
 جمیع بىندە لازىدۇغۇفت توت مېشىغ
 كە ھەر وقت ھەزىما قىلىغىلىنىڭ ئەرىدىم
 آخىر كۈندۈز خەڭىلە ئەپەنلىكى قىلىم

جمیع بىندە لازىدا او بادىن سەرەل يارىپ
 بىرىپ ئۆفيق ئاطا ئەتكەنلە ئەنلىكى ئەنلىكى
 بلانى دفع ئەپلاپ مەھاتدىن سەرەل
 حىزىم ئەپلاپ ئەنلىقى سەرەل يارىپ
 كە من بىچارە دەذوق بادىن سەرەل يارىپ
 كە نامەرمۇن دەنم بىچارە دن سەرەل يارىپ
 تو تو بىن خەنلىقى ئەنلىق ئەنلىق
 آخر كور دە بولوسىن سەم مەاف سەرەل يارىپ



[“ھویدايي جمانى” Buxoro toshbosmasi, 1900. 13-bet]

Joriy yozuvdagı tabdili:

Xudovando, tuman turluk balodin asrag‘il, yo Rab,
 Jami’ bandalarni ul vabodin asrag‘il, yo Rab.
 Panoh bergilki, har bechorani vasvosi shaytondin,
 Berib tavfiqo toat, ko‘nglimizni asrag‘il, yo Rab.
 Mani, ojiz qulungni fitnayi oxir zamondin,
 Baloni daf” aylab ham xatodin asrag‘il, yo Rab.
 Murakkab aylading hirsu havou nafsi shaytondin,
 Tarahhum aylagil, nafsi havodin asrag‘il, yo Rab.
 Ilohi bandaga zavqi mutohhar aylagil ro‘zi,
 Ki man bechorani zavqi riyodin asrag‘il, yo Rab.
 Jami’ bandalarni ofiyat tut mutbadi’lardin,
 Ki nomahram zani shum, behayodin asrag‘il, yo Rab.
 Ki har vaqt, har zamon qilg‘il kishig‘a yaxshilig‘ har dam,
 Tutub ko‘z yaxshiliq tuhmi yomondin asrag‘il, yo Rab.
 Har kecha-kunduz Xudoga bandalikni qil mudom,
 Oxir go‘rda bo‘lursen ham musofir, asrag‘il, yo Rab.
 Oli mag‘firat qil bu Huvaydoning gunosini,
 Ijobat qil duosini, gunahdin asrag‘il, yo Rab.

Matndan ma’lum bo‘ladiki, g‘azal boshdan oxir Robbiga munojot tarzida yozilgan bo‘lib, Yo Rab undalmasi radif tarkibida keltirilgan. Bunda shoir yer yuzida mavjud bo‘lgan turli balolardan, ofat va davosiz dardlardan nafaqat o‘zini, balki jami’ bandalarni asrashini Xudovanddan yolvorib so‘raydi.

Buxoro toshbosmasida shu kunga qadar nashrlarda uchramagan yana bir yangi topilmasi sakkiz bandli tasdis-musaddasi ham aniqlandi. Mazkur musaddas Alisher Navoiyning “Shabiston ichra kirgach, sham'larning nurin etting gum, deb boshlanuvchi g‘azaliga nazira shaklida yozilgan.

Ta’kidlash lozimki, musammatlarning bandlar chegarasi g‘azaldagi baytlar soni bilan bir xil bo‘ladi. Biroq g‘azal asosida musammat yozilayotganda, g‘azaldagi ayrim baytlarga musammat bog‘lanmasligi, ya’ni musammat yozgan

shoir g‘azalni “qisqartirib” olishi mumkin. Aynan shu holat Huvaydo musaddasida ham kuzatiladi. Tasdisga asos bo‘lgan Navoiy g‘azali, aslida, hajman 9 baytdan iborat. Ammo musaddas holida tasdis bog‘langanda uning bir bayti qoldirilib, sakkiz band holida keltirilgan. G‘azaldagi quyidagi bayt Huvaydo musaddasida uchramaydi:

Otang oy-u onang xurshid edi erkinki, sen tug'dung,
Vale husn-u latofatda ne ab o'xshar sanga, ne um.

Huvaydo o‘z musaddasida asos qilib olgan Navoiy g‘azalidagi fikrlarni rivojlantirgan, kechinmalarni badiiy sharhlab, mavzuni kengaytirgan. Bunda Alisher Navoiy bilan musaddas yaratuvchisi bo‘lmish Huvaydoning tafakkur-taxayyuli uyg‘unlashganligini ko‘rish mumkin. Ijodi tasavvuf g‘oyalariga yo‘g‘rilgan Huvaydo o‘z musaddasida Navoiy kabi ilohiy ishqni tarannum etgan. “Navoiy mutafakkir shoir sifatida Alloh-Olam-Odam munosabatlarini teran badiiy talqin qilib, ko‘plab mav’iza she’rlar, falsafiy mushohadalari mahsuli bo‘lmish hikmatli bayt-u misralar tizgan. Orif shoir sifatida Huvaydo ijodida ham pand-u nasihat yetakchi o‘rin tutadi. Chunki Navoiy kabi Huvaydo ham so‘zni ma’rifat quroli deb bilgan” [3, 46].

Milliy istiqlol sharofati bilan Huvaydo merosini chuqur o‘rganish, uning asarlarini ko‘p nusxada chop etish, xalqimizni ulug‘ mutasavvif merosidan bahramand etish imkoniyati vujudga keldi. Ushbu imkoniyatdan foydalangan holda shoirning Buxoro toshbosmasi eski o‘zbek yozuvidan joriy yozuvga tabdil qilindi. Mavjud nashrlar bilan qiyoslash natijasida aniqlangan “Yo Rab” radifli munojot-g‘azal va bir tasdis-musaddas huvaydoshonoslikda kiritilgan bir yangilikdir. “Huvaydoi Chimyoniy” nomli Buxoro toshbosmasi amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan bir manba hisoblanadi. Bu kitobda hali o‘rganilmagan yangi janrlar bo‘lishi mumkin. Shuni inobatga olgan holda mazkur toshbosmani chuqur o‘rganish hamda Buxoroda saqlanayotgan boshqa qo‘lyozmalar bilan o‘zaro qiyoslab tahlil qilishni o‘z oldimizga maqsad qilib qo‘ydik. Zero, ulug‘ ajdodlarimiz merosining azim va tunganmas xazinalaridan xalqimizni bahramand etish bugungi kun uchun muhim vazifadir.

ADABIYOTLAR:

1. “هوبدای جمنی” Buxoro toshbosmasi, 1900.
2. Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug‘ati. 4 jildlik.1-jild. – T.: Fan, 1983. – 656 b.
3. Ergash Ochilov. //Huvaydo ijodida Navoiy an’analari. – Toshkent.: 2023, – Xalqaro konferensiya materiallari. – №68. – B. 46
4. Huvaydo. Devon. – Toshkent: Yangi asr avlod, 2005. – 303 b.

5. Jumaxo‘ja N. //Huvaydo tasavvufiy she’rlarida falsafiy-badiiy talqin. “Sharq yulduzi”, 1998. – № 4.
6. Qodirqul Ro‘zmatzoda. Xojamnazar Huvaydo diniy-mistik qarashlarining XVII-XVIII asrlar Markaziy Osiyo tasavvufi rivojidagi o‘rni. Falsafa fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2020.
7. Urokova N. GENRE RESEARCH IN UZBEK POEMS OF RECENT TIMES //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 8. – C. 57-59.